

**Hilola Tilovova**

*Jizzax DPU o‘zbek tili va adabiyoti*

*306-guruh talabasi*

**Gulbahor Qurbonova**

*Ilmiy rahbar:*

**Annotatsiya:** *Maqolada jadid namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasidan o‘rin olgan asosiy mavzulardan biri – maktabning ahamiyati, teatr san‘ati, adabiy tilga doir qarashlari xususida fikr yuritiladi. Dramaturg, publitsist, pedagoglik yo‘llarini bosib o‘tgan jadidimizning matbuotda qayd etilgan jummalari uning amaliy faoliyatida bevosita namoyon bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** *teatr san‘ati, makotib islohoti, publitsistika, “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali, “Til masalasi”, adabiy til.*

O‘zini tanigan, haq-huquqini bilgan, kishilarni rivojlanishga chaqirgan insonda istiqloq kurtaklari shakllangan va bu tushuncha qadri anglangan bo‘ladi. Milliy mustaqillikka erishish haqidagi o‘ylar, harakatlar dastlab maorifparvar, hurlik istar xalq vakillari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabi Turkiston qo‘rboshilari harakatlarida ko‘rina boshlandi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr Turkistonining orzu-armonlarini tushunuvchi va ularning ro‘yobga chiqishi uchun kurashuvchi bir shaxs sifatida maydonga chiqdi. Uning butun hayoti va faoliyati bilan tanishishda yangi zamon nafasi uchun, hurriyat uchun kurash va sa‘y-harakatlarni ko‘rish mumkin.

“Har bir millat eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etib, ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub, madaniyatdan foydalanmas. Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hojati yo‘q”[2:144], - deya “*muhtaram yoshlarg‘a murojaat*”[2:144] etadi publitsist. Endi yurtda ta‘limsiz, maktabsiz qanday holat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘rmoq kerak. Na taraqqiyotga intilish, na bir madaniylik surati namoyon. Maqolada yer yuzidagi o‘z bolalarini o‘qitib, “tarbiya va akmolig‘a ahamiyat”[1:165] berayotgan millatlarni xitob bilan tilga olinadi. Bunday bolalarda diniy va milliy hissiyotlar, diyonat va milliyat tushunchasi muqaddam turishini aytadi.

“Ehtiyoji millat” maqolasida: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”, [1:165] — deya bildirilgan ta‘kidlari ayni haqiqatdir. Ilmsizlikni millat jaholati deb hisoblab, bu holni bartaraf etish

harakatlarini o‘z amallarida aks ettirgan kishilar har doim e’tirofiga ega. Jamiyatda ravnaq undagi mana shunday jonkuyarlarning borligi bilan ro‘yobga chiqadi.

O‘sha davr holati uchun zarur bo‘lgani holda taraqqiy yo‘lida yurmoqni ko‘zlagan el uchun har davrda ham bunday g‘oya va amallar zarurdir. Demakki, ta’limparvar, maorifga intilgan Behbudiy har davrga ham kerak. Agar ilm-u maorifdan foydalanmas ekanmiz, jadid ushbu maqolasida ta’kid qilganidek, *“fazoyili insoniyatdan sanalgan shaylar qanday hosil bo‘lur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz?”*[3:86]

Yoshlar uchun maktab zarur bo‘lsa, umuman, kattalar va yoshlar uchun teatr qiziqroq va xalq hayotiga oyna bo‘larlik darajada ahamiyatli edi. Shu boisdan, Behbudiy jonli, tabiiy san‘at va adabiyot namunasi bo‘lgan o‘zbek teatr sahnalarining ilk mualliflaridan biri bo‘ldi. Sahnada aks etgan “Padarkush” pyesasining bilimlilik, ma’rifatlilikni yoqlovchi mazmuni xalq ma’naviyati eshiklarining ochilishiga hissa qo‘shgan bo‘lsa, ajabmas. Zero asardan ko‘zlangan pirovard maqsad shu bo‘lgan. “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Yangi adabiyotning markazi – Samarqand...Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir. [5:4]

Teatr to‘g‘risidagi maqolasini o‘qib, jadidning teatrda juda bir havasmand bo‘lganini payqash mumkin. U rivojlanayotgan xalqlarda har kuni bir teatr qo‘yilishini ta’kidlab, teatr afzalliklarini sanab o‘tadi: Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir. Teyotr va‘z va tanbeh etguvchi hamda zararlik odat, urf va tamilni, qabila va zararini ayonan ko‘rsatuvchidir [1:165].

Xatti-harakatlar oq-u qorasini yaqqol ko‘rsatib beruvchi, xalqqa o‘z ahvolini anglatadigan bu teatr muhimlik darajasi yuqori bo‘lgan san‘at turidir. Unda san’atkor o‘z mahorati, badiiy va hayotiy bilimi bilan harakatlarni amalga oshiradi. Dramaturg ta’kidlagani – teatrning ibrat joyi ekanligini namoyon qiladi.

Teatr ishlariga sho‘ng‘igan Behbudiyni publitsistika olamining ham faol tashkilotchisi sifatida taniydi kuzatuvchi. O‘zi noshirlik qilgan “Samarqand”, gazetasi, “Oyina” jurnallarida xalq hayoti xususida muallifning qarashlari, “ilmiy, fanniy, tarixiy maqolalar”i yoritildi.

XX asrning boshlarida, Behbudiy ijodiy faoliyati davrida, Turkistonda til masalasi qanday edi? Hozirgi o‘zbek tilining adabiy lashishi ushbu davrlarga to‘g‘ri keladi. Bunda jadidchilarning ishtiroki ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Behbudiyning til borasidagi qarashlari 1915-yilda yozilgan “Til masalasi” maqolasida aks etgan. Maqola ikki qismga bo‘linadi. Birinchisida Turkiston aholisida muomalada bo‘lib turgan til tarkibi haqida so‘z boradi va muallif bu yerda necha yuz yillardan beri aralashib kelgan fors tilidagi so‘zlarning turkiylar shevasiga o‘rnashib qolganini aytadi. Shuningdek, arab tilidan ham son-sanoqsiz so‘zlar ta’sir etib, turkiy tildagi so‘zlarning ko‘pchiligi iste’moldan chiqqani haqida so‘z yuritildi.



Turkistonda ko‘proq xalq shevalari asosiy qo‘llanmada bo‘lib qolayotganligiga to‘xtalarkan, Behbudiy yaxlit bir adabiy til muhimligini ta’kidlaydi. Turkistonda madaniyat, saltanat va adabiyot ancha tadanniy (tushkunluk) etgani uchun xalq bu lahjani buzganlar. Buzmoq nari tursin, Turkistonning har bir shaharining va hatto ba’zi bir kasaba va ko‘ylarining shevasi boshqadur. Masalan, anda, munda, ul yerda, bul yerda, shul yerda; o‘tda, bo‘tda, sho‘tda, etta, betta, shetta; o‘rda, bo‘rda, sho‘rda; o‘ra, bo‘ra, sho‘ra kayfiyatinda so‘ylaydurgan shaharlar bo‘lub, mundan buzuq so‘zlarni na’vi va adadi juda ko‘pdur [1:167] (Bundan o‘tda, bo‘tda, sho‘tda ko‘rsatish olmoshlari Toshkent hududlariga; shetta, betta, etta olmoshlari vodiy — Farg‘ona hududlariga mansubdir) Yuqorida keltirilgan so‘zlar – ko‘rsatish olmoshlarining turli hududlarimizda turlicha ishlatilishi, bu tabiiy hol, tabiiy sheva. Behbudiy bu so‘zlarni “buzuq so‘zlar” degani holda bunday dialekt holatlarni forsiy va arabiy talaffuzlarning aralashishi oqibati, deb hisoblaydi. Va bu holni hududlarning joylashishiga qarab, turlicha ekanini izohlaydi. Bizningcha, sheva xalqning tiliga putur yetkazuvchi emas, balki xalq tilida tabiiy namoyon bo‘luvchi til shaklidir.

Behbudiy: “Uzun bir maqola yozg‘andan so‘ng lug‘z va ma‘nosi, nazorat va odobi va tarzi shevasini tushunib, tashih, ikkinchi marotaba yozmoq kerak”, [1:170] – degan holda birinchi xatni tasvid, ikkinchisini tabiiy ataydi.

Lug‘z — so‘z; tashih — tuzatish; tasvid – qora, tabiiy – oq. Xatning oq varianti va qoralamasi nazarda tutiladi. Shu o‘rinda publitsist yoziladigan xatlarni ikki qismga bo‘ladi, biri – umumiy, yana biri – xususiy. Umumiy xatlar rasmiy maktublar sanalib, davlat organlariga, qozixonona, tijoratxonalarga yoziladigan xatlardir, deydi u. Ikkinchi tur esa ikki kishi o‘rtasidagi yozishma maktubi – yodnoma, tabriknoma, taklifnomalardir.

“Xat yozmoq shartlari” ni ham yoritib, xatni kamso‘z, serma‘no yozmoq kerakligini ta’kidlaydi. Fan ahli, ulamo va udabog‘a maxsus yoziladigan xatlar, mahkama va dorulqazo maktublari, ilmiy va siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratda yozilishi kerak, deb hisoblaydi publitsist. “Turkiycha yozilur ekan va iboratni turkisi bo‘lub turub ani o‘rnig‘a rusiy va ajnabiy ismini yozmoqni ahli donish man qilgandur”, [1:171]— degan talablarni ko‘ramiz maqolada.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidechiligining boniysidir [2:217]. Qayd etganlarimiz ajdodimiz ijodining publitsistik yo‘nalishdagi ayrim o‘rinlaridir. *Mahmudxo‘ja Behbudiy qoldirgan meros bugungi avlod uchun bebahodir. Zamondoshlaridan biri bu zotni “Turon-Turkiston quyoshi” deb ta’riflagan edi. Bu quyosh bugunning zulmatini ham yoritib turibdi. Ulug‘ donishmand bobomizning hikmat-u nasihatlarini o‘qir ekanman, buyuk tafakkuri, matonati va xotirasi oldida bosh egaman, [5] deya e’tirof etgani ta’kidlanadi.*

Imsizlikni millat jaholati deb hisoblab, savod-u ta’limni yoyishga harakat qilgan, millat taraqqiysi uchun xizmat ko‘rsatgan ajdodimiz faoliyati uni o‘quvchi kishiga ibrat bo‘larlik bir holda ayonlashadi. O‘z davrining yetuk vakili, jadid tafakkur sohibi, yetuk

san'at egasi sanalgan ushbu shaxsning bunday asarlari qimmat va ahamiyatiga har doim ham ega bo'lajak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Behbudiy. Istiqlol qahramonlari. Begali Qosimov. Toshkent. "Ma'naviyat". 1997.
2. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent. "Ma'naviyat", 2002.
3. Jadidlar to'plami. Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent, 2022.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Istiqlol qahramonlari"dan. Begali Qosimov. Toshkent. "Ma'naviyat". 1997.
5. X. Davron kutubxonasi. Internet sayti. (A. N. Samoylovich. Dramaticheskaya literatura sartov, Vestnik. 1917.)